

SPORT USLUBINING MODA SANOATIGA TA'SIRI

*Islomova Farodisabonu Zafar qizi
Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti
Dizayn (kostyum) yo`nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport uslubining zamonaviy moda sanoatiga ta'siri o'r ganilgan. Sport uslubi nafaqat kundalik kiyinish madaniyatida, balki yuqori moda brendlarning kolleksiyalarida ham o'z aksini topmoqda. Tadqiqotda sport kiyimlari va aksessuarlarining moda sanoati uchun iqtisodiy, madaniy va estetik jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy texnologiyalar, brend strategiyalari va iste'molchilar talabining sport uslubining rivojlanishidagi roli alohida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sport uslubi, moda sanoati, brend strategiyalari, kundalik kiyim, zamonaviy texnologiyalar.

So'nggi yillarda sport uslubi moda sanoatining ajralmas qismiga aylandi. Dastlab sportchilar uchun mo'ljallangan kiyimlar bugungi kunda kundalik hayotda keng qo'llanilmoqda. Moda brendlari bu uslubni o'z kolleksiyalariga qo'shib, uni yuqori moda darajasiga ko'tarmoqda. Ushbu maqolada sport uslubining moda sanoatiga ta'sirini o'r ganish maqsad qilib qo'yilgan. Shu jumladan, sport uslubining kundalik hayotga integratsiyasi, yuqori moda brendlari uchun iqtisodiy foydasi va estetik o'zgarishlari tahlil qilinadi.

Sport uslubining paydo bo'lishi va rivojlanishi: Sport uslubining moda sanoatiga kirib kelishi XIX asrning oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab sport kiyimlari asosan qulaylik va funktsionallikka e'tibor qaratib yaratilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu kiyimlar estetik ko'rinishi bilan ham ajralib tura boshladi. Sport uslubi 1920-30-yillarda tennis, futbol va golf kabi sport turlari bilan mashhurlik qozondi. Ayniqsa, sportchilar kiyimlarining qulayligi va harakat erkinligi kundalik kiyinish madaniyatiga ham kirib bordi.

XX asrning ikkinchi yarmida sport uslubi global miqyosda rivojlandi. Mashhur brendlari – Adidas va Nike – faqat sportchilar uchun emas, balki har qanday inson uchun qulay kiyim va poyabzallar ishlab chiqarishni boshladi. Ayniqsa, 1980-90-yillarda sport uslubi "streetwear" uslubi bilan uyg'unlashib, yoshlar orasida ommalashdi. Bugungi kunda bu uslub faqat sport zallarida emas, ofis va zamonaviy tadbirlarda ham mos keladigan ko'rinishga ega bo'ldi.

Moda sanoatida sport uslubining o'rni: Sport uslubi zamonaviy moda sanoatining eng muhim segmentlaridan biriga aylangan. Bu uslubni yirik moda brendlari o'z kolleksiyalarida faol ravishda qo'llab kelmoqda. Misol uchun, yuqori

moda brendlari – Gucci, Balenciaga, va Prada – sport kiyimlarini o‘z kolleksiyalarida namoyish qilib, sportni nafislik va elegans bilan birlashtirmoqda.

Bundan tashqari, sport uslubi brendlari uchun yangi marketing strategiyalarni ham keltirib chiqardi. Ko‘pgina brendlari mashhur sportchilar, musiqachilar va ijtimoiy tarmoq yulduzlari bilan hamkorlik qilib, o‘z mahsulotlarini ommalashtiradi. Masalan, Adidas va Kanye West hamkorligida ishlab chiqarilgan Yeezy poyabzallari butun dunyoda keng tanilgan. Shuningdek, Nike kompaniyasining Air Jordan liniyasi nafaqat sportchilar, balki moda ixlosmandlari orasida ham ommabopdir.

Iqtisodiy ta’siri: Sport uslubining moda sanoatiga iqtisodiy ta’siri juda keng. Ushbu segment global moda bozorining katta qismini egallaydi va yil sayin o’sishda davom etmoqda. 2023-yilda global sport kiyimlari bozorining hajmi 300 milliard AQSh dollaridan oshgani qayd etildi.

Yirik brendlari sport uslubidagi kiyim va aksessuarlarni ishlab chiqarishda yangi texnologiyalardan foydalanib, mahsulotlarining sifatini oshirishga harakat qilmoqda. Misol uchun, o‘z-o‘zidan qotadigan poyabzallar, termoizolyatsiya qilingan kiyimlar va namlikni o‘zlashtiruvchi materiallar iste’molchilar talabiga mos keladi. Shuningdek, ekologik toza mahsulotlarga qiziqishning ortishi sababli brendlari qayta ishlangan materiallardan foydalanishni yo‘lga qo‘ymoqda.

Sport uslubi shuningdek brendlarga yangi bozorlarni olib berdi. Misol uchun, faol hayot tarzini targ‘ib qiluvchi brendlari sport zallari, ko‘cha modasi va internet savdo platformalarida o‘z o‘rnini mustahkamladi.

Madaniy va texnologik omillar: Madaniy o‘zgarishlar sport uslubining moda sanoatiga integratsiyalashuviga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sport kiyimlari kundalik hayotda nafaqat qulaylik, balki o‘ziga xos hayot falsafasini aks ettiradigan unsurga aylangan. Bugungi kunda odamlar kiyim tanlashda nafaqat estetik go‘zallikka, balki ularning funksionalligiga ham e’tibor qaratadi.

Texnologik yutuqlar ham sport uslubining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi materiallar, masalan, havo o‘tkazuvchi va ekologik toza matolar, sport kiyimlarini yanada qulay va uzoq muddatli qiladi. Shuningdek, 3D-printing texnologiyasi orqali poyabzal va aksessuarlar ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirib, iste’molchilarga moslashtirilgan mahsulotlarni taqdim qilish imkonini yaratmoqda.

Xulosa: Sport uslubi moda sanoatining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, uning ta’siri har tomonlama seziladi. Bu uslub nafaqat qulay va funksional kiyimlarni, balki yangi madaniy trendlarni ham shakllantiradi. Moda sanoati sport uslubi orqali yangi texnologiyalar va ekologik materiallarni joriy qilish, iste’molchilarga yanada sifatli va qulay mahsulotlarni taklif qilish imkonini bermoqda.

Kelajakda sport uslubining moda sanoatidagi o‘rnini yanada mustahkamlanishi va brendlari uchun asosiy segmentlardan biriga aylanishi kutilmoqda. Ushbu tendensiya

nafaqat iqtisodiy foyda, balki estetik va madaniy o‘zgarishlarni ham olib keladi. Sport uslubi, shubhasiz, moda dunyosida yangi davrni boshlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nike va Adidas kompaniyalarining rasmiy hisobotlari, 2023.
2. Qosimova M.C., Abduhalilova L.T. Marketing tadqiqotlari: O’quv qo’llanma. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2007.
3. Axmedov A.S. Dizayn asoslari. Toshkent: Fan, 2018.
4. “Sport kiyimlari bozorining rivojlanishi va innovatsion yechimlar,” O‘zbekiston innovatsiya markazi nashri, 2022.
5. O‘zbekistonda sport uslubidagi mahsulotlarga talabning o‘sishi,” Iqtisodiyot va tadqiqotlar jurnali, 2023.